

KLASTER FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI

Karimova Nilufar Sadriddin qizi

TDIU tayanch doktorant

E-mail: nilufarkarimova1013@gmail.com

ANNOTATSIYA

Jahon iqtisodiyotida kechayotgan integratsiya jarayoni uning globallashuviga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Globallashuv ta'siri asosida tovarlar va xizmatlar sifatini ham standartlashtirishni ta'minlovchi mamlakatlararo komunikatsiya tizimi bugungi kunda rivojlanib bormoqda. Bu esa mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining muhim omili sifatida klaster siyosatining rivojlantirish hamda iqtisodiy taraqqiyotning barqaror o'sishiga zamin yaradi. Ushbu maqolada turli mamlakatlarda davlat darajasida amalga oshirilgan klaster siyosatining xorij tajribasi yoritilib berilgan. Har bir mamlakat miqyosida klaster yondashuvning qisqacha mazmuni, ustunlik va kamchiliklari ularning tahlilari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Klaster siyosati, innovatsiya, yangi texnologiyalar, xorij tajribasi, milliy modellar.

ABSTRACT

The process of integration in the world economy has a great impact on its globalization. Today, the inter-country communication system, which ensures the standardization of the quality of goods and services, is developing under the influence of globalization. This creates the basis for the development of cluster policy as an important factor of the economic development of our country and the stable growth of economic development. This article highlights the foreign experience of cluster policy implemented at the state level in different countries. A summary of the cluster approach at the level of each country, advantages and disadvantages of their analysis is highlighted.

Keywords: Cluster policy, innovation, new technologies, foreign experience, national models.

KIRISH (INTRODUCTION)

So'nggi yarim asrda dunyoda muhim texnologik o'zgarishlar ro'y bermoqda, buning natijasida hududning raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion rivojlantirish asosida klaster faoliayti ham tubdan o'zgarib bormoqda. Bu klaster faoliyatini olib borishda, innovatsiyalar texnik jarayonlarni tashkil etishning yangi shakllaridan

foydalinishni o‘z ichiga oladi. Shu sababli ham, mamlakatimizda klasterlarini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha xorij tajribasini o‘rganganda rivojlangan mamlakatlar tajribasini tahlil qilish muhimdir. Maskur maqolada iqtisodiy klasterlarni shakllantirishning milliy modellari hamda agrosanoat klasterlarini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha taraqqiy etgan mamlakatlarning tajribalariga nazar tashlaymiz.

Rivojlangan davlatlarning tajribalari shuni ko‘rsatmoqdaki, barqaror iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishni ta’minlashda, innovatsion faollikni oshirishda, raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishda klasterlarning, xalqaro logistika markazlarining, erkin iqtisodiy zonalarning o‘rni va ahamiyati juda yuqori. Mamlakatimizda klaster siyosatinin rivojlanishda xorij tajribasiga suyangan holda “Erkin ilmiy- texnikaviy zonalar” shaklida tashkil etib kelinmoqda. Erkin ilmiy iqtisodiy zonalar yuksak texnologiyalar amal qiladigan zonalar, texnoparklar, mintaqaviy innovatsiya markazlari tashkil etilib kelinmoqda. Rivojlanish ko‘rsatkichlari shuni ko‘rsatadiki, xorij tajribasini o‘rganish, uning ijobiyligi jihatlaridan foydalanish, salbiy tajribalarni tadqiq qilish mamlakatda samarali iqtisodiy siyosat olib borishga yordam beradi.

Ushbu maqolaning maqsadi O‘zbekistonidagi shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda klaster siyosatini amalga oshirishda xorij tajribani o‘rganish, natjalarni umumlashtirgan holda, takliflar ishlab chiqishdan iboratdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHЛИLI (LITERATURE REVIE)

Umuman olganda, klaster amaliy ahamiyati mamlakatlar, tarmoqlar va korxonalar iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirish va yuqori samaradorlikka erishishni nazarda tutgan holda xorij raqobat nazariyasi aoschilari M. Porter, A. Tompson, K. Briman B. Lundval, B. Yonson, T. Brayan adabiyotlaridan foydanilanildi.

Quyidagi adabiyotlar, misol uchun klasterlar nazariyasi rus olimlari klasterga oid ilmiy taqdiqot ishlari horijlik olimlar tomonidan ilmiy-nazariy jihatdan keng o‘rganilib kelinmoqda. Jumladan, J.Ashenbroyx, S.Aleksandr, A.Barabolina, V. Baburin, I. Bortnik, S. Zemtsov, V. Tarasenko³⁶ lar tomonidan muayyan ilmiy ishlar olib borilgan. Xususan, Yu.S. Artamonova, B.B. Xurustalev va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilib amaliyotga tadbiq etish bo‘yicha loyihalar ishlab chiqilgan. Bu adabiyotlarda klasterning ahamiyati mamlakatlar, tarmoqlar va korxonalar iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirish yuqori samaradorlik erishish nazarda tutilgan.

³⁶ Н.Руднева Опыт создания структурированных кластеров в развитых странах (Электронный ресурс)// Скоч, Александр. Международный опыт формирования кластеров. (Электронный ресурс)//Режим доступа. Куценко Е.С. (Становление инновационных кластеров в России: итоги первых лет поддержки // Инновации. 2015. № 7. С., Ф.Моисей, Славянова Светлана (Кластер номер один//Эксперт Юг № 48 (137), 2010)., С.Соколинко О кластеризации в странах ОЧЭС (Электронный ресурс)// Режим доступа:<http://www.ucci.org.ua>.Владислав Тарасенко (Территориальные кластеры: Семь инструментов управления. — М.: Альпина Паблишер, 2015.— 201 с.

Klaster nazariyasini tatbiq etish g‘oyasining asosichi Maykl Porter fikriga ko‘ra, klaster geografik nuqtai nazaridan yaqin bo‘lgan, o‘zaro bog‘liq kompaniyalar hamda ularga aloqador xizmatlarni ko‘rsatib, ma’lum sohada faoliyat yurutuvchi tashkilotlar guruhidir.³⁷

S.Fisher tomonidan “Iqtisodiy klasterlar nafaqat o‘zaro bog‘liq va aloqador tarmoqlar va institutlar, balki faqat aloqador va bog‘liq institutlar bo‘lib, ularning aloqadorligi va bog‘liqligi asosida tarmoqlarning raqobatbardoshligi ta’milanadi” xulosasi berilgan.³⁸

Shuningdek, paxta to‘qimachilik klasterining mohiyati, uni rivojlantirish masalalari O‘zbekistonlik olimlar tomonidan ham ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Klaster tashkil etishning nazariy-uslubiy jihatlari va tashkil etish masalalarini A.Omonova, D.Mirzalilova, G.Zahidov, O.Todorovalarning ilmiy tadqiqodlarida ko‘rishimiz mumkin.

Xususan, professor M. Rahmatovning “Yangi O‘zbekiston Uchinchi Renessans ostonasida” nomli kitobida bu klasterlarni tashkil etish, ularni rivojlantirish hamda moliyalashtirish mexanizmlari haqida masalalar yoritilgan.

O‘zbekistonda klaster faoliyatini yoritishda hamda klaster asosida ishlab chiqarishni tashkil etishning ilmiy asoslari M.A.Rahmatov, B.Z.Zaripovlar “Klaster-integratsiya innovatsiya va iqtisodiy o‘sish” risolasi tomonidan ko‘rsatib bergan.

Bu kabi ilmiy tadqiqot ishlarini ilmiy tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, klasterlar faoliyatini rivojlantirishda moliyalashtirish masalalari va muommolari hamda ularda qo‘llaniladigan usullar tahlillar masalalariga kengroq urg‘u berilgan.

A.Suxanova o‘zining ilmiy-tadqiqotlari natijasida quyidagi xulosalarni shakllantirgan: “Yuqori samaradorlikka asoslangan klasterlar modellarining tahliliga ko‘ra, qanchalik klasterda turli xildagi ishtirokchi kompaniyalar va turli xildagi tashkilotlar keng jalb qilingan bo‘lsa, shunchalik klaster yuqori samaradorligi ta’milangan bo‘ladi, jumladan, ishlab chiqaruvchi va ta’motchi, ilmiy tadqiqot va oliv ta’lim muassasalari, moliyaviy tashkilotlar va banklar, davlat muassasalari va konsalting kompaniyalar va h.k. lar. Bu o‘z navbatida, klasterning iqtisodiyotga chuqur integratsiyalashganligini bildiradi”³⁹

³⁷ M.A.Rahmatov, B.Z.Zaripov “Klaster-integratsiya, innovatsiya va iqtisodiy o‘sish” Zamin Nashr Toshkent-2018 12-b

³⁸ Фишер С. Экономика. – М.: Издательство: Дело ЛТД, 1995. – 498 с.

³⁹ Суханова П.А. Индикативная оценка региональной инновационной системы с учетом кластерного подхода. Дисс... канд. экон. наук. Пермь. 2015.

Yuqorida nomlari keltirilgan tadqiqotchilar o‘z ilmiy tadqiqotlari doirasida klasterni turli jihatdan o‘rgandilar, tahlil qildilar, xulosalar chiqarib, taklif va tavsiyalar ishlab chiqdilar. Bu klaster nazariyalaridan medotlaridan foydalangan holda, amaliyotga qo‘llab ularning afzalik va kamchiliklarini xorij tajribalari orqali namoyon bo‘lmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

O‘zbekistonda keyingi yillarda ilg‘or texnologiyalarga asoslangan infratuzilmani yaratish, qishloq xo‘jaligida klaster usulini joriy etishga jiddiy e’tibor qaratilyapti. Klasterlar faoliyati, ularning boshqaruva xususiyalari va qonuniyatlarilari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish bir qator samarali tadqiqot metodologiyasidan foydalanishni taqozo etadi. Albatta bunda avvalo nazariy mushohada hamda mantiqiy yondoshuv asosida klasterlar faoliyatini o‘rganishda xorijiy mamlakatlar tajribasini, va ularning yondashuvlari ilmiy-nazariy tahlil qilindi. Unga asoslangan holda ilmiy adabiyotlar ilmiy tahlil qilindi, muammoga oid ilmiy tadqiqotchilar va mutaxassislarning ilmiy-nazariy qarashlari bunda umumlashtirish va guruhlashtirish metodga asoslandi. Rasmiy va amaliy materiallarga asoslangan holda sintez va tahlil usullarga asoslanib ilmiy xulosalar olindi, deduktsion yoki induksion yondoshuvga asosan klasterlar faoliyatiga ta’sir etadigan omillarni quyidan yuqoriga va aksincha tartibda tadqiq etish imkonii tug’ildi. Mantiqiy va taqqoslama, abstrakt-mantiqiy fikrlash hamda statistik usullarni qo’llash orqali kompleks tahillarga asoslanib ilmiy-amaliy takliflarni shakllantirildi.

TAHLIL (ANALYSIS)

Iqtisodiyotning innovatsion taraqqiy etishida, iqtisodiy rivojlanishning an’anaviy usullari yetarli darajada foya bermasligi mumkin. Bu davrda klaster siyosatini olib borishda, hamda amaliyotga tadbiq etishda maqbo‘l yo‘l hisoblanadi. Klasterlar milliy raqobatbardoshlikni oshirishga hissa qo‘sishgan individual hududlar va mintaqalarni rivojlantirish uchun samarali vositadir. Bunga erishish uchun mamlakatda sifat va innovatsiya g‘oyasi milliy g‘oya, jamiyatdagi o‘zaro munosabatlar yo‘nalishi bo‘yicha ustuvor yo‘nalish bo‘lishi kerak. Mamlakatni intensiv rivojlanish yo‘liga, texnologiya va innovatsiyalarni rivojlantirish yo‘lini olib borish kerak. Mamlakat iqtisodiyotini ko‘tarishning asosiy mexanizmlaridan biri innovatsion klasterlarni rivojlantirish uchun aniq va muvozanatli dasturdan ya’ni xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanish kerak. Bundan tashqari, shuni ta’kidlash kerakki, bugungi unda mamlakatimizda rivojlangan mamlakatlarda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va boshqarishda klasterlardan foydalanish bo‘yicha ma’lum tajriba to‘plagan deyishimiz mumkin.

Yevropa mamlakatlarida va ASHda bu strategiya keng qo‘llanilgan bo‘lib kelinmoqda. Klasterlar Buyuk Britaniya, Gollandiya, Germaniya, AQSH, Daniya,

Italiya, Finlyandiya, Hindistonda yaxshi rivojlangan. Daniya, Finlandiya, SHvetsariya sanoatini klasterlar to‘la egallagan.

Klaster tuzilmalari Shveytsariya, Avstriya, Italiya, Daniya, Hindiston, Koreya, Pokiston, Xitoy, Turkiya davlatlari yengil sanoatida, Germaniya, kimyo va kosmetika sanoatlarida muvaqqiyatli ishlamoqda. Klasterlarni shakllantirish jarayoni Janubiy-sharqi Osiyo, Xitoy, Singapur, Yaponiya, va boshqa mamlakatlarda faollashib bormoqda.⁴⁰

Iqtisodiy klasterlarni shakllantirishning milliy modellarini 4 guruhga ajratib o‘rganish mumkin. Quyidagi rasmdan ko‘rishimiz mumkinki, Yevropa va AQSH modellarda rivojlanishning bosh omili sifatida klaster doirasidagi raqobat ta’kidlansa, uchinchi model Osiyo modelida davlatning to‘g‘ri siyosati, to‘rtinchi model Yaponiya esa maxsus ixtisoslashgan tashkilot doirasidagi raqobat asoslanadi.

Yevropa modeli	Xorijiy mamlakatlar uchun maxsus marketing siyosatini yuritish bilan, turli xil mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi korxonalarining chegaralangan hududda to‘planishi.
Shimoliy Amerika modeli	Geografik yaqin joylashgan korxonalar hududiy ixtisoslashuv asosida iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi bilan tavsiflanadi.
Osiyo modeli	Milliy iqtisodiy siyosat asosida tashkil etilgan vertikal bog‘langan ixtisoslashgan sohalarning rag‘batlanishi bilan farqlanadi.
Yaponiya modeli	Monopol korxonalar atrofida birlashgan kichik va ixtisoslashgan firmalar yig‘indisi bo‘lib, yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish narx va sifat borasida raqobatlanishi bilan xarakterlanadi.

1-rasm . Iqtisodiy klasterlarni shakllantirishning milliy modellar⁴¹

Milliy iqtisodiyotda klasterlarni shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha milliy modellardan Shimoliy Amerika, Finlandiya, Yaponiya, Hindiston va “Sovetcha” modellarni alohida tasniflanadi. Bu o‘rinda klasterlashtirishning milliy modellarining o‘ziga xosligini aniqlashda bir nechta omillardan foydalanilgan bo‘lib, klaster yondoshuvi asosida iqtisodiy an‘analarning rivojlanish xususiyatlari, strategik muhim tabiiy resurslar bilan ta’minlanganlik o‘rtasidagi farq, mamlakatlar sanoat tarkibining farqi, milliy (hududiy) bozorlarning sig‘imi, siyosiy omil kabilar shular jumlasidandir.⁴²

⁴⁰ M.A.Rahmatov, B.Z.Zaripov “Klaster-integratsiya, innovatsiya va iqtisodiy o’sish” Zamin Nashr Toshkent-2018 15-b

⁴¹ 1.Kundius V., Kovaleva I., Semina L., Voronkova O. Sannikova I., Bobrovska T. Functioning of the Agro-Industrial Cluster in Terms of Development of Innovative-Investment Activity // International Business Management, 2017. – №11 (12). – P. 2098.

2.Хикматов Р., Гараев А. Международный опыт развития кластеров // Актуальные проблемы экономики и права, 2009. – №1(9). – С.125-127

⁴² Nigora Maxmasobirova ”Iqtisodiy klasterlarni shakllantirishning milliy modellari tahlili” Volume 3 | SB TSAU

Paxta ekish maydoni va jahonning ba'zi bir mamlakatlarida uning xosildorligi⁴³

Davlatlar	Hosildorlikka ko'ra reytingi	Tola kg/ga	Paxta xomashyosi st/ga	Ekish maydoniga ko'ra reytingi	Ekish maydoni, ming.ga	Tolani yalpi yig'ish bo'yicha reytingi	Paxta tola, ming tonn
Isroil	1	1766	53.5	52	6	38	10
Avstraliya	2	1550	50.3	30	590	10	915
Turkiya	3	1429	37.4	8	320	7	457.5
Brazilya	4	1391	42.2	6	1212	5	1680
Meksika	5	1374	37.6	29	116	15	159.5
Xitoy	6	1310	39.7	1	5317	1	6967
Suriya	7	1280	32	22	125	13	160.1
Qirg'iziston	8	938	28.4	41	24	35	22
AQSH	9	889	26.9	3	3735	2	3329
Gretsiya	13	816	24.2	15	240	8	196.1
Peru	14	811	24.1	33	51	26	41.4
Pokiston	15	688	20.8	4	3000	4	2105
O'zbekiston	16	674	20.4	5	1313	6	885
Qozog'iston	17	649	19.6	27	146	18	94
Eron	18	635	21.3	32	120	24	76.3

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, globallashuv va raqobat bir xil hududda joylashgan taffovut ishlab chiqaruvchilarining imkoniyatlarini birlashtirilgan va birlashtirilgan tizimlarning yagona ishlab chiqarish texnologiyasiga va jarayonlarga qarab vertikal integratsiyalashgan tizimlarni birlashtirishni talab qiladi. Xalqaro munosabatlarning muvaffaqiyatli shakllanishi va rivojlanishi klasterlarning muvaffaqiyatli rivojlanishiga bog'liq. Tahlillarga ko'ra, klaster uning ishtirokchilari uchun qo'shimcha pullar, qanday va kim olinishi mumkinligi va kompaniyalar va klasterli menejerlar uchun o'quv seminarlarini tashkil etishga hissa qo'shadi. Shunday qilib, yangi g'oyalar va texnologiyalarning o'zaro ta'siri va qabul qiluvchilar o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini xalqaro aloqalarni rivojlantirish va klasterlarning muvaffaqiyatli rivojlanishi asosida erishish mumkin. Shuning uchun biz ishonamizki, ushbu maqola barcha tadqiqotchilar va amaliyotchilarining e'tiborini jalb qiladi.

MUHOKAMA (DISCUSSION) Klaster yondashuvini joriy etishda xorij tajribalari suyanadigan bo'lsak, AQSH, Yaponiya, Italiya, Buyuk Britaniya,

Hindiston, Fransiya va Xitoy kabi mamlakatlar iqtisodiyoti hozirgi vaqtda sanoat taraqqiyoti alohida korxonalar tomonidan emas, balki ularning birlashmalari, guruhlari, klasterlar va tarmoqlar.

AQSH muvaffaqiyatlari klaster siyosatini amalga oshirgan davlatlar orasida yetakchilardan biri hisoblanadi. Klasterlarni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha jahon mamlakatlari tajribasiga qisqacha nazar soladigan bo'lsak, Amerikadagi klasterlarning ixtisoslashuvi asosan kompyuter texnologiyalari hisoblanadi. Ushbu mamlakatda liberal klaster siyosati olib borilgan bo'lib, bugungi kunda 380 dan ortiq klasterlar mavjud. Bu davlatda mamlakatdagi mavjud korxonalarning yarmidan ziyodi shu tizimda ishlab, ular tomonidan tayyorlanayotgan tovarlar yalpi ichki mahsulotning 60 foizini tashkil qiladi. Klasterlash jarayonlari eng yirik ilmiy markazlar va universitetlar bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. Klasterlarni boshqarishda hamda klaster faoliyatini shakllantirishda bir-biridan tubdan farq qiluvchi usullar va dastaklardan foydanilgan.

Hozirgi kunda AQShda ko'pgina shaharlar va hududlar klaster strategiyalarini amalga oshirmoqdalar. Klasterlarni shakllantirish bo'yicha komissiyalar yaratildi. Kerakli tahliliy ishlarni ilmiy markazlar va universitetlar tomonidan amalga oshiriladi. Klasterning boshlang'ich kapitali davlat boshqaruvi tomonidan byudjetdan ajratilgan va faqat xususiy kompaniya mablag'lari jalb qilingan. AQSHda iqtisodiy klasterlar rivojlanib kelayotganiga qaramasdan, ta'kidlash lozimki, mamlakatda bugungi kunda ham klasterlarning barcha xususiyatlarini aniqlovchi yagona model, yagona klaster siyosati mavjud emas.⁴⁴ AQSHda mavjud "Silikon vodiysi" - bu oliv biznes-texnik klaster bo'lib, ishtirokchilar axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va ishlab chiqarish bilan bog'liq. Klasterlarning boshqa misollari aerokosmik uskunalar, axborot texnologiyalari, tibbiy asbob-uskunalar, "Sof" energiya, biotexnologiya va zamонавију kimyo texnologiyalari kabi sohalarni rivojlantirishga ixtisoslashgan markazlardir.

Xitoy klaster modelida klasterlarni moliyalashtirish va qo'llab-quvvatlashda hukumat muhim rol o'ynaydi. Mamlakatda klaster siyosati ham markaziy ham mahalliy hukumat tomonidan ishlab chiqiladi. Xitoy markaziy hukumati Milliy taraqqiyot va islohotlar komissiyasi (NDRC) tomonidan e'lon qilingan sanoat klasterlarini rivojlantirishga yordam berish bo'yicha ko'rsatmalarga muvofiq klasterlarni doimiy rivojlantirishga intiladi. Xitoy klaster siyosatining asosiy yo'nalishlariga rejalashtirish jarayonini kuchaytirish, resurslardan oqilona foydalanishni oshirish, ixtisoslik orqali ishbilarmonlikni takomillashtirish, yangiliklarni rag'batlantirish, barqaror o'sishni rag'batlantirish, patentlash orqali mintaqaviy brendlarni yaratishni rag'batlantirish xizmatlar sohasini rivojlantirish

⁴⁴ Competitive Regional Clusters: National Policy Approaches. OECD reviews of regional innovation. – OECD, 2007. – P.323

belgilangandir.

Kanada ham liberal xususiyatli rivojlangan klaster siyosati yurutuvchi davlat hisoblanadi. Mamlakat klaster siyosatining farqli jihatni innovatsion-texnologik klasterlarni tashkil etish hisoblanadi.

Hozirda Kanadada 50 ga yaqin muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan klasterlar mavjud. Ularga Vonkuver shahridagi “Issiqlik elementlari va vodorod texnologiyalari” Texnologik klasteri, Edmonton shahridagi “Nonatexnologiyalar” Texnologik klasteri va Montreal shahridagi “Aviakosmos” klasterini misol qilish mumkin. Kengash barcha mintaqalarni qamrab olish maqsadida mintaqalarda “Texnologik klaster tashabbuslari”ni tashkil etgan bo‘lib, ular Milliy kengashning mintaqaviy vakolatxonalari tomonidan boshqariladi. Bunda asosiy faoliyat yo‘nalishlari intellektual kapital o‘sishini ta’minalash, innovatsion tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash, maxsus dasturlar va klaster ishtirokchilari orasidagi hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqish, ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish va boshqalar hisoblanadi. Shu tariqa, Kanadada klasterlarni qo‘llab-quvvatlashda barcha darajadagi boshqaruv organlari faol ishtirok etadi.

Hindistonda 2000 dan ortiq klasterlar, jumladan, 388 sanoat va 1657 hunarmandchilik korxonalari mavjud. Klasterlar mamlakat eksportining 60% ni, ayrim yirik klasterlar esa Hindistonda ishlab chiqariladigan ayrim tovarlarning (kiyim-kechak, zargarlik buyumlari va charm buyumlar) 90% ni ta’minalaydi. Hindistonda kichik biznes asosan metropoliyalar va yirik iste’mol bozorlari va mehnat resurslari rivojlangan sanoat va ijtimoiy infratuzilmaga ega yirik shaharlardagi yirik sanoat kompaniyalari atrofida to‘planadi. Turli klasterlarda faoliyat yurutuvchi kichik korxonalar soni 40-50 dan 1700 tagacha (Dehlidagi texnik jihozlar klasteri misolida) farq qilishi mumkin.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, klaster rivojlantirishda to‘qimachilik sanaotida vertikal inegratsiyalashgan tizim samarali va raqobatbardosh bo‘la oldi, bu tizim paxta xom-ashyosini yetishtirish va dastlabki ishlov berishdan boshlab, to uni paxta zavodalarida keying qayta ishlash va tayyor mahsulotga aylantirishgacha bo‘lgan jarayonlarni o‘zi ichiga oladi.

Innovatsion klasterlarni rivojlantirishda Xitoy tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. “Innovatsion klasterlar: Pekindagi Tsinghua yoki Shanxaydagi Fudong universitetlar atrofida, shuningdek, biznes-inkubator sifatida mahalliy hokimiyat tomonidan yaratilgan maxsus tadqiqot va ilmiy-texnologik parklar atrofida paydo bo‘ladi. Bu klasterlarga davlat grantlari, Xitoy venchur kapitali, eng yaxshi xitoylik va chet ellik (asosan, Yevropa va AQShda tahsil olgan xitoylik) mutaxassislar jalb etiladi”.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, xorijiy mamlakatlarda klasterni rivojlantirish bo‘yicha qo‘llanilgan strategiyalar, yondashuvlar tahliliga asoslanib aytish mumkinki, har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darjasи, mavjud klaster salohiyati, resurlar xususiyatidan kelib chiqqan holda yondashish lozim. O‘zbekistonda paxta-to‘qimachilikda resurslarga boyligi, xalqaro miqyosda ham raqobat qila olishi mumkinligi klaster sohasiga mahalliy va xorijiy investitsiyalarni kengroq jalg etishni taqazo etadi. Xorijiy mamlakatlar tajribasida klaster siyosatini o‘rgangan holda shuni aytish mumkinki, klaster siyosati ba’zi mamlakatlarda ijobiy ya’ni muvaffaqiyatli amalga oshirilgan bo‘lsa boshqa mamlakatlarda bu klasterni joriy qilish salbiy oqibatlarga olib kelgan. Bu tahlillarga suyanadigan bo‘lsak, malakatimiz geografik joylashuvidan kelib chiqib, jahon standartlariga mos kelgan klaster modellarini joriy etish kerak. Fransiya tajribasining ijobiy jihatini o‘rganish jarayonida klaster siyosatini olib borish va hududlarni rivojlantirishga qaratilgan federal maqsadli dasturlar yaxshi samara berayotganini ko‘rishimiz mumkin.

Xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilgan holda quyidagi takliflarni beramiz.

- 1) Klaster siyosati orqali iqtisodiy sohalararo aloqalarni kuchaytirish;
- 2) Klaster rivojlantirishda texnologik tarmoqlarni tashkil etish va rivojlantirish;
- 3) Xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rgangan holda bilimlarni uztish tizimini shaklantirish;
- 4) Klasterlashtirishda xorijiy mamlakatlarining tajribasini mamlakatimiz mintaqasidan kelib chiqqan holatda qo‘llay bilish;
- 5) Klaster faoliyatiga oid ilmiy ishlanmalar tizimini yaratish;
- 6) Klaster siyosatini olib borishda hudud va aholi bilan bog‘liq xususiyatlarini e’tiborga olish.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI (REFERENCES)

1. Портер Майкл.Пер.с. англо./ Майкл Порттер.-М.и.др. Вильямс, 2003.
2. Competite Regional Clusters:National Policy Approaches OECD reviews of regional innovation.-OECD, 2007
2. M.Rahmatov, B.Z Zaripov “Klaster-integratsiya, innovatsiya va iqtisodiy o‘sish.Risola “Zain Nashr” Toshkent-2018
4. Nigora Maxmasobirova “Iqtisodiy klasterlarni shakllantirishning milliy modellari tahlili” Volume 3 | SB TSAU Conference | 2022 Theoretical and Practical Principles of Innovative Development of the Agricultural Sector in Uzbekistan
5. Кузнецова Н.В, Н.А. Кластеризация экономики зарубежный опыт развития и перспективы России// Экономика науки 2016-№2
6. Klaster hamkorligi bo‘yicha Yevropa plastformasi rasmiy veb sayti ma’lumoti.URL <https://www.clustercollaboration.eu>